

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASHDA ART-PEDAGOGIK VOSITALARNING KORREKSION VA KREATIV IMKONIYATLARI

Yusupova Firuza Xajiboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

feruzka.yusupova9495.z@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21317999>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlash muammolari hamda ushbu jarayonda art-pedagogik vositalarning o'rni yoritilgan. Tadqiqotda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda san'at va pedagogika integratsiyasiga asoslangan metodlarning korreksion-rivojlantiruvchi hamda kreativ imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan. Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetensiyani shakllantirish, ularning kasbiy moslashuvchanligi va emotsional barqarorligini oshirishda art-pedagogikaning translyatsion mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning psixofizik xususiyatlarini korreksiya qilish va ularning ijodiy salohiyatini uyg'otishga qaratilgan art-pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim o'quv dasturlariga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, bo'lajak pedagoglar, art-pedagogika, korreksion imkoniyatlar, kreativlik, inklyuziv kompetensiya, san'at terapiyasi, alohida ta'limga ehtiyoj, kasbiy tayyorgarlik.*

Abstract. *This article highlights the issues of preparing future teachers to work in inclusive education environments within the higher pedagogical education system, as well as the role of art-pedagogical tools in this process. The study scientifically substantiates the correctional-developmental and creative potentials of methods based on the integration of art and pedagogy when working with children*

with special educational needs. The translational mechanisms of art-pedagogy in developing inclusive competence, enhancing professional flexibility, and emotional stability among future educators are analyzed. The article develops practical recommendations for integrating art-pedagogical technologies into higher education curricula aimed at correcting the psychophysical characteristics of children and awakening their creative potential in the process of inclusive education.

Keywords: inclusive education, future pedagogues, art-pedagogy, correctional capabilities, creativity, inclusive competence, art therapy, special educational needs, professional training.

Аннотация. В данной статье освещаются проблемы подготовки будущих учителей к работе в условиях инклюзивного образования в системе высшего педагогического образования, а также роль арт-педагогических средств в этом процессе. В исследовании научно обоснован коррекционно-развивающий и креативный потенциал методов, основанных на интеграции искусства и педагогики при работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Анализируются трансляционные механизмы арт-педагогики в формировании инклюзивной компетентности, повышении профессиональной гибкости и эмоциональной устойчивости будущих педагогов. В статье разработаны практические рекомендации по внедрению в учебные планы высшего образования арт-педагогических технологий, направленных на коррекцию психофизических особенностей детей и пробуждение их творческого потенциала в процессе инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, будущие педагоги, арт-педагогика, коррекционные возможности, креативность, инклюзивная компетентность, арт-терапия, особые образовательные потребности, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida inson kapitalini rivojlantirish, har bir shaxsning, ayniqsa, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi va sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, imkoniyati cheklangan bolalarni teng huquqlilik asosida ta'limga jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz Yangi O'zbekistonni "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" degan olijanob g'oya asosida barpo etmoqdamiz. Shunday ekan, ehtiyojmand va imkoniyati cheklangan vatandoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoit yaratish barcha darajadagi rahbarlarning eng asosiy vazifasidir". Ushbu g'oyaning amaliy in'ikosi sifatida mamlakatimizda inklyuziv ta'limning huquqiy-metodik poydevorini mustahkamlovchi qator fundamental hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim tushunchasi va uni joriy etish mexanizmlari qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga inklyuziv sinf va guruhlarda faoliyat yurita oladigan, bolalarning individual psixofizik xususiyatlarini tushunadigan va ularga moslashuvchan metodika qo'llay oladigan yangi avlod pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalarni qo'ymoqda. Biroq bugungi oliy pedagogik ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv muhitda ishlashga tayyorlashda hamon ko'proq quruq nazariy va tibbiy-defektologik yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Vaholanki, inklyuziv sinfdagi bolalar bilan ishlash pedagogdan nafaqat tibbiy bilimlarni, balki yuksak darajadagi kreativlik, empatiya va

moslashuvchanlikni talab etadi. Aynan mana shu nuqtada san'at va gumanistik pedagogika integratsiyasiga asoslangan art-pedagogik vositalar qudratli korreksion va innovatsion metod sifatida namoyon bo'ladi. Art-pedagogika alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning nutqiy, sensor, emotsional va motor funksiyalarini san'at vositalari orqali yumshoq korreksiya qilish bilan birga, ularning yashirin ijodiy salohiyatini (kreativligini) yuzaga chiqaradi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularga art-pedagogikaning korreksion va kreativ imkoniyatlaridan foydalanish metodikasini o'rgatish, ushbu texnologiyalarni oliy ta'lim o'quv rejalariga tizimli tatbiq etish metodologik jihatdan dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi - bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda art-pedagogik vositalarning korreksion-rivojlantiruvchi va kreativ salohiyatini ochib berish hamda ularni oliy pedagogik ta'lim mazmuniga joriy etishning samarali metodik tizimini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash va bu jarayonda art-pedagogik hamda art-terapevtik vositalardan foydalanish muammosi ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu tizimli muammoni to'g'ri baholash uchun mavjud ilmiy adabiyotlarni inklyuziv kompetensiya va san'at vositalarining korreksion tabiati nuqtai nazaridan guruhlash maqsadga muvofiqdir. Jahon miqyosida inklyuziv ta'lim metodologiyasi va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi muammolari D.Mitchell kabi g'arb olimlari tomonidan konseptual jihatdan tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida inklyuziv ta'lim faqatgina texnik moslashtirish emas, balki gumanistik pedagogika va moslashuvchan muhit yaratish ekanligi asoslanadi.

Art-pedagogikaning inklyuziv makondagi korreksion va kreativ imkoniyatlari esa Ye.Yamburg, L.Lebedeva va E.Axtamyanova kabi defektolog va pedagog olimlarning ishlarida o'rganilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, san'at vositalari alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning Sensor va kognitiv kamchiliklarini kompensatsiya qilishda, ulardagi emotsional zo'riqishlarni (gressivlik, qo'rquv)

yumshoq korreksiya qilishda qudratli vosita hisoblanadi. Shuningdek, K. Rojers va A.Maslou kabi gumanistik psixologiya vakillari ijodiy faoliyat (art) orqali rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarning o'z-o'zini namoyon qilishi osonlashishini isbotlaganlar. O'zbekistonlik olimlar ham mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish va pedagog kadrlarni tayyorlash masalalariga salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar. Xususan, D.G'aribova va M.Ayupova kabi tadqiqotchilar maxsus ta'lim va defektologiyaning dolzarb masalalari, alohida ehtiyojli bolalarni korreksion-rivojlantiruvchi o'qitish metodikalarini ishlab chiqqanlar. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini oshirish muammolari N. Muslimov, X.Ibragimov va A.Xoliqov kabi olimlarning ishlarida chuqur tahlil qilingan. F.Qodirova va G.Shomurodova kabi olimlar esa bo'lajak o'qituvchilarni bevosita inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlash, ularda inklyuziv madaniyat va empatiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etganlar.

Mazmuni. Bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'lim muhitiga tayyorlash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u talabalardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuksak darajadagi amaliy-kreativ refleksiyaning talab qiladi. An'anaviy ta'lim usullari ko'pincha bo'lajak o'qituvchilarga inklyuziv sinfdagi bolalarning psixologik holatini his qilish va ularga individual yondashish imkonini bermaydi. Shu bois, oliy pedagogik ta'lim jarayoniga art-pedagogik vositalarni tizimli olib kirish, ularning korreksion va kreativ funksiyalaridan unumli foydalanish strategik ahamiyatga ega.

Art-pedagogik vositalarning inklyuziv ta'limdagi korreksion imkoniyatlari alohida ehtiyojli bolalardagi turli jismoniy va ruhiy to'siqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, izoterapiya (rasm chizish, loy bilan ishlash), musiqiy terapiya va ertak terapiyasi kabi metodlar bolalarda mayda motorika, nutq rivojlanishi va sensor idrok etishni yaxshilaydi. Masalan, nutqida nuqsoni bo'lgan yoki autizm spektri buzilgan bolalar bilan ishlashda musiqiy ritmika

va logoritmika darslari artikulyatsiyani to'g'rilashga yordam beradi. Loy va qum terapiyasi esa serebral falajlik yoki giperaktivlik belgilariga ega bolalarning asab tizimini tinchlantiradi, diqqatni jamlash ko'nikmasini oshiradi. Bo'lajak pedagoglar ushbu vositalarning korreksion mexanizmlarini amalda qo'llash orqali inklyuziv sinfda har bir bola uchun xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratishni o'rganadilar. Shu bilan birga, art-pedagogikaning kreativ imkoniyatlari inklyuziv ta'limning eng oliy maqsadi - alohida ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularning yashirin iqtidorlarini kashf etishga xizmat qiladi. San'at vositalari bolalarni qoliplardan ozod qiladi; bu yerda "noto'g'ri chizilgan rasm" yoki "noto'g'ri ijro etilgan kuy" degan tushuncha bo'lmaydi. Bo'lajak o'qituvchilar darslarni sahnalashtirilgan o'yinlar (pedagogik drama) yoki jamoaviy rasm chizish (kollaj yaratish) shaklida tashkil etish orqali nogironligi bo'lgan bolalar va sog'lom bolalar o'rtasida tabiiy muloqot ko'priklarini quradilar. Bu jarayonda bolalarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, ulardagi ijodiy g'oyalar yuzaga chiqadi, sog'lom tengdoshlarida esa empatiya va tolerantlik hissi shakllanadi. Bo'lajak pedagoglarni ushbu metodik tizimga tayyorlash uchun oliy ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish zarur. Birinchidan, "Inklyuziv ta'lim" fani tarkibiga "Inklyuziv amaliyotda art-pedagogik texnologiyalar" nomli amaliy modul kiritilishi shart. Ushbu modul doirasida talabalar shunchaki san'at turlarini o'rganmaydilar, balki har bir nuqson turi uchun (ko'rish, eshitish, tayanch-harakat tizimi va aqliy zaiflik) alohida art-metodikalarni tanlash va dars ssenariylarini kreativ loyihalashni o'zlashtiradilar. Ikkinchidan, oliygohlarda pedagogik treninglar o'tkazilib, talabalar rolli o'yinlar orqali o'zlarini inklyuziv sinfdagi bolalar o'rniga qo'yib ko'rishlari lozim. Masalan, ko'zi bog'langan holda loydan haykal yasash yoki imo-ishoralar orqali ertak sahnalashtirish mashqlari bo'lajak pedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini va emotsional barqarorligini oshiradi.

Natijalar. Bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida art-pedagogik vositalardan foydalanish tizimining samaradorligi talabalarning

kasbiy-inklyuziv kompetensiyalari hamda shaxsiy-emotsional sifatlarining o'sish ko'rsatkichlari orqali baholandi. Oliy ta'lim o'quv jarayoniga art-pedagogik modullarni (izoterapiya, pedagogik drama, ertak va musiqiy terapiya elementlari) joriy etish an'anaviy o'qitish tizimiga nisbatan bir qator muhim pedagogik samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish imkonini berdi. O'quv jarayoniga yangicha yondashuv natijasida bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv darslarni kreativ loyihalash hamda o'quv materiallarini bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish ko'nikmalari sezilarli darajada o'sdi. Talabalar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun dars o'tishni shunchaki texnik moslashtirish deb emas, balki san'at vositalari orqali dars muhitini gumanizatsiyalash ekanligini anglab yetdilar. Ular ko'rish, eshitish yoki tayanch-harakat tizimida nuqsoni bor bolalarning sensor idrokini rivojlantiruvchi mualliflik dars ishlanmalari va art-pedagogik ssenariylarini mustaqil yaratish darajasiga ko'tarildilar.

Natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot doirasida olingan ilmiy-amaliy natijalar va xulosalarning ishonchliligi hamda ob'ektivligi pedagogik metodologiya talablariga qat'iy rioya qilinganligi bilan kafolatlanadi. Natijalarning haqqoniyligini asoslovchi bir qator mustahkam omillar mavjud. Tadqiqotning nazariy-metodologik poydevori puxta ishlab chiqilgan bo'lib, undagi tavsiyalar va metodik tizim jahon va mamlakatimiz inklyuziv ta'lim hamda maxsus pedagogika sohasidagi yetakchi olimlarning fundamental qarashlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining inklyuziv ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga to'liq mos keladi. Empirik ma'lumotlarning ishonchliligi tajriba-sinov ishlarida reprezentativlik tamoyillariga amal qilinganligi bilan ta'minlandi. Bo'lajak pedagoglarning inklyuziv va kreativ kompetensiyalarini o'lchashda jahon amaliyotida tekshirilgan va standartlashtirilgan pedagogik testlar, ekspert baholash mezonlari hamda talabalarning amaliy dars ishlanmalarini portfolio usulida tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan kirish va chiqish nazoratlari ko'rsatkichlari solishtirilganda, art-pedagogik modullar

asosida tahsil olgan talabalarning natijalari an'anaviy guruhlarga qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etildi. Ko'rsatkichlar farqi tasodifiy xarakterga ega emasligi matematik-statistik tahlillar yordamida qayta tekshirilib, olingan natijalarning ichki ishonchliligi ilmiy isbotlandi.

Xulosa . Bo'lajak pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda art-pedagogik vositalarning korreksion va kreativ imkoniyatlarini tadqiq etish yakunida bir qator tizimli xulosalar shakllantirildi. Inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritadigan zamonaviy o'qituvchini tayyorlash nafaqat unga tibbiy-defektologik bilimlarni berishni, balki unda yuksak darajadagi gumanistik refleksiyaning, kreativlik va tolerantlikni shakllantirishni talab etadi. Art-pedagogika san'at va gumanistik pedagogika sintezi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning ushbu kasbiy fazilatlarini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at vositalarining korreksion tabiati alohida ehtiyojli bolalardagi sensor, motor va emotsional to'siqlarni yumshoq bartaraf etish imkonini bersa, ularning kreativ salohiyati bolalarni jamiyatga ijodiy moslashtirish va integratsiya qilishga yo'naltirilgan. Bo'lajak o'qituvchilar ushbu vositalarni o'zlashtirish orqali inklyuziv sinfdagi har bir bolaning individual imkoniyatlariga va uning ichki olamiga tayanishni o'rganadilar. Oliy pedagogik ta'lim tizimida ushbu metodikani muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish uchun "Inklyuziv ta'lim" fani dasturlarini tarkibiy jihatdan yangilash, ularga maxsus amaliy art-pedagogik modullarni kiritish hamda oliygohlarda talabalarning rol o'yinlar orqali kasbiy moslashuvchanligini oshiruvchi amaliy muhitni shakllantirish talab etiladi. Ushbu transformatsiyalarning oliy pedagogik ta'lim tizimiga tizimli ravishda tatbiq etilishi, kelgusida umumta'lim maktablarining inklyuziv sinflariga tibbiy cheklovlarga emas, bolaning cheksiz insoniy va ijodiy salohiyatiga tayanib yondashadigan professional, yuqori malakali va kreativ pedagog kadrlarni yetkazib berish kafolati bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli Qarori
3. Booth, T., Ainscow, M. (2002). *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
4. Mitchell, D. (2014). *What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-based Teaching Strategies*. London: Routledge.
5. Rogers, C. R. (1961). *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. Boston: Houghton Mifflin.
6. Maslow, A. H. (1968). *Toward a Psychology of Being*. New York: Van Nostrand Reinhold.
7. Лебедева, Л. Д. (2001). *Арт-терапия в позитивном консультировании*. Санкт-Петербург: Речь.